

Gap so`zlardan tuziladi. So`zlar bo`g`inlarga bo`linadi. So`zdagi unli tovushlar soniga qarab bo`g`inlar sonini aniqlash mumkin.

### **Tinglab tushunish ; (5 daqiqa)**

**Z. Hasanovaning** “ Oilam” she’ri o‘qib beriladi. She’r nima haqida ekanligi haqida suhbatlashiladi.

**Eslatma:** She’rni o‘qishni biladigan o‘quvchilarga ham o‘qitish mumkin.

### **Darslik bilan ishlash: (7 daqiqa)**

Darslikda berilgan alifbe qahramonlari bilan o‘quvchilarni tanishtiriladi.

Akmal-atrofimizdagi olamni o‘rganishga qiziqadi.

Aziza- matematika va sportni yaxshi ko‘radi.

Madina- Akmal bilan egizak. U juda qiziquivchan va quvnoq.

Jasur-musiqa cholg‘u asboslarini chalishni biladi.

Har bir bolaning ismi bo‘g‘inga ajratiladi.

### **Daftар bilan ishlsh: (8 daqiqa)**

1. *Oila a’zolaringizni hissiyotlar bilan ifodalab chizing.*

2. *“Mening oilam” mavzusida rasm chizing.*

### **Darsga yakun yasash:**

Darsda sizga nimalar yoqdi?

-Darsdan nimalarni eslab qoldingiz?

-Bolajonlar siz qanday rasmlarni bo`yadingiz?

**4-mavzu: Men va atrofimizdagi olam. Unli va undosh tovush haqida tushuncha.**

### **Dars maqsadi:**

- tovush haqida ma’lumot oladilar;
- unli va undosh tovush haqida tushunchaga ega bo`ladilar;
- so`zni tovushlarga bo`lib, uning chizmasini chizishni o’rganadilar;

**Tayanch so'zlar:** nutq, gap, so'z, bo`g`in, tovush, so`zni tovushga bo`lish chizmasi.

**Didaktik materiallar:** ko`k va qizil rangli kichik kvadratlar, rasmi kartochkalar, turli tovushlar yozilgan audio yozuv.

## **Darsning borishi:**

### **I.Kirish qismi (5 daqiqa)**

#### **Faollashtirish mashqi:**

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

Tanishuv mashqi: O'qituvchi 1-qator o`quvchilarga o`z qatorlaridan nechta o`quvchini ismini yodda olib qolganliklarini so`raydi. Qolgan qatorlari bilan ham huddi shunday davom ettirish mumkin.

- *Bugun siz bilan "Tanishuv" mashqini o'tkazamiz. Birinchi qator o`quvchilari o`rnidan turadilar. Kim o`z qatoridagi o`quvchilar ismlarini nechtasini eslab qolgan bo`lsa aytadi. Qatordagi o`quvchilar o`z ismlarini eshitganlarida esa men deb joculariga o`tiradilar.*

### **Asosiy qism (40 daqiqa)**

#### **1.Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)**

**O`qituvchi uchta narsa tovushini bolalarga eshittiradi va uni rasm bilan ifodalashni so`raydi. (chapak, kulgu, kitobni varoqlash)**

*Qog`ozga eshitgan tovushlarni rasm bilan ifodalang.*

#### **Amaliy topshiriqni muhokama qilish:**

- Ovozni qanday rasmlar bilan tasvirladingiz?
- O`rtog`ingiz chizgan rasmlar siznikiga o`xshaydimi?
- Kim chizgan rasm to`g`ri deb o`yladingiz?

*Javoblar xulosalanib, yangi mavzu tushuntiriladi*

## 2.Mavzuni tushuntirish: (10 daqiqa)

O`qituvchi bir necha narsaning ovozini eshittiradi va uni bolalardan so`raydi. Masalan: suvning shildirashi, oyoq tovushi, musiqa ohangi, mashina ovozi .....

Ularni tovush ekanligini va uni biz quloglarimiz orqali eshitishimizni aytib o`tadi. Bular musiqa va tabiatdagi buyum va narsalarning harakatlanishidan chiqadigan ovoz. Hatto hayvonlar ham ovoz chiqaradilar.

Rasmlarni kuzatadilar va rasmda ifodalangan harakatlardan qanday ovoz chiqishi so`raladi. Ular haqida suhbat o`tkaziladi.



-Mana, biz qaysi tilda gaplashamiz?

-Ha, to`g`ri o`zbek tilida gaplashamiz.

-Do`srlaringiz orasida qanday tilda gaplashadiganlarini uchratasiz. (rus, tojik, qozoq...) shunday ekan har bir tilning o`z tovushlari va ular ifodalaydigan harflari borligi tushuntiriladi. Doskada so`zni tovushlarga bo`lib ifodalash chizmasi ko`rsatiladi. Unda shartli ravishda ikki xil rang ko`k va qizil rang bilan ifodalanishi tushuntiriladi. Darslikda berilgan topshiriq o`quvchilar bilan birga bajariladi.

### **O'qituvchi uchun eslatma:**

Insonlar ham gapirganlarida ovoz chiqishi va uning ham o'z nomi bor. U tovushlar deb atadi, tovushlar birlashib esa ma'lum tilni hosil qiladi.

#### **Jamlab ayt: (5 daqiqa)**

Darslikda berilgan rasmlardan foydalaniлади. Unda berilgan rasmni ifodalovchi so`zlarni bo`g`inga bo`linadi va har bir qatorini bir so`z bilan ifodalanadi.

*Rasmni ifodalovchi so`zlarni bo`g`inga bo`ling va bir so`z bilan ifodalang.*

#### **Tinglab tushunish ; (5 daqiqa)**

Topishmoq o`qib beriladi. Uni nima haqida ekanligi haqida suhbatlashiladi.

**Eslatma:** O'qishni biladigan o'quvchilarga ham topishmoqni o'qitish mumkin.

#### **Darslik bilan ishslash: (7 daqiqa)**

Darslikda berilgan rasmlarni tovushlari eshittiriladi. O`quvchilar esa uni qaysi rasmga mos ekanini topadilar. Yoki o`quvchilardan rasmdagi harakatlarga mos tovush o`xshatib berish so`raladi.

#### **Daftар bilan ishlsh: (8 daqiqa)**

*1.Rasmni ifodalovchi so`zlar orasidan, berilgan chizmaga mosini toping.*

*2.Rasmni ifodalovchi so`zlar qanday tovush bilan boshlangan? Mos rangga bo'yang.*

#### **Darsga yakun yasash:**

*Tovushlarni nima qilamiz?*

*-Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?*

*-Mashg'ulotda sizga qanday o'yin yoqdi?*